

“Sudxo‘rning O‘limi” Asarida Qo‘llanilgan Somatik Frazelogizmlar Tarjimasining Tahlili

Jamshed Norkulovich Mirzoyev¹

Annotatsiya: Mazkur maqola bugungi kun tarjimashunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblangan frazeologik birliklarning tarjimasini, xususan somatik komponentli frazeologizmlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. S. Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida foydalanilgan somatik frazeologizmlar qiyosiy tahlili bir qancha misollar bilan tahlilga tortilgan. Shuningdek, frazeologik birliklar tarjimasini jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolar va aspektlarni inobatga olgan holda ularni bartaraf etishga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, ibora, idioma, semantik ekvivalentlar, somatik komponentli frazeologizmlar, frazeologik lug‘at, tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, tasviriy tarjima.

Turli tillarda mavjud frazeologik birliklarning qiyosiy tadqiqi va tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa tadqiqot jarayonida muayyan tillar frazeologizmlarini umumiy va farqlovchi tomonlarini aniqlash, ma‘no mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Frazeligiya – tilshunoslikning mustaqil qismi sifatida nafaqat tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki shu tilda so‘zlovchilarning dunyoqarashi, turmush tarzi, his-tuyg‘ulari, orzu-havaslarini, mayl va odob-axloqlarini namoyon etishga qodir. Frazeligiya birliklari turli xalq vakillarining til boyligi hisoblanib, millatning turmush sharoiti, inson ichki kechinmalari va tushunchalarini o‘zida aks etadi.

Har bir til frazeologizmlar zaxirasi tarkibida xalq ijtimoiy hayotiga mansub tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma‘naviy, madaniy me‘yorlar, ruhiy holatlar, diniy va dunyoviy tasavvur, milliy an‘ana va urf-odatlar o‘z aksini topgan bo‘ladi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*tuyaning dumi yerga tekkanda*”, “*qizil qor yoqqanda*” kabi iboralar, ingliz tilida, “*when pigs fly*”, “*once in a blue moon*”, rus xalqida esa, “*когда рак на горе свистнет*”, tojik xalqi esa, “*кайку думи шутур ба замин расад*” frazeologik birliklarni qo‘llashadi. Keltirilgan ushbu frazeologik iboradagi leksik birliklar turli tushunchalarni ifodalasada, “*tuya, qor, pigs, moon, rak, шутур*”, “hech qachon sodir bo‘lmaydigan ish-harakat” asosiy fikr hisoblanadi. Bu yerda tarjimonning asosiy vazifasi asliyatdagi frazeologik birlikka tarjima tilida xuddi shu fikrni ifodalaydigan va xuddi shunday stilistik ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un birlikka orqali berishdan iboratdir. Misollardan ko‘rinib turibiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birliklarning ekvivalentlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, ayni obraz qo‘llanmaganda obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi. Tarjima tilida asliyatdagi frazeologik birlikka ma‘no va stilistik ifodaliligi o‘xshash turg‘un birlikka topish maqsadga muvofiq bo‘ladi².

Frazeologik birliklar bir tildan boshqa tilga to‘rt yo‘l orqali tarjima qilinadi.

1. Grammatik, semantik va uslubiy moslashishlar orqali.

Masalan: *to lose one’s head, kallasini yuqotmoq, потерять голову, ақл гум кардан.*

2. Semantik ekvivalentlar orqali.

Masalan: *xamirdan qil sug‘urgandek, a piece of cake (like shelling peas), пустячное дело (проще простого)*

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti, “Til va tarjima” kafedrasini o‘qituvchisi

² I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, “Tarjima nazariyasi”, o‘quv qo‘llanma, T. 2012. 154 b.



3. Kalka orqali.

Masalan: *from head to toe, boshdan oyoq, с ног до головы (с головы до ног), аз сар то по.*

4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali³.

Masalan: *boshi ko'kka yetdi (og'zi qulog'ida), over the moon, быть на седьмом небе от счастья, сару кассе ба осмон расидан.*

Aynan somatik frazeologik birliklar haqida fikr yuritar ekanmiz, ularda inson va hayvonlarning tana a'zo nomlari ishtirok etgan bo'lib, har bir tilda struktura va semantik jihatdan o'xshash va farqlovchi tomonlari mavjud bo'ladi. Dunyodagi ko'plar xalqlarda, avloddan avlodga o'tib kelayotgan frazeologizmlarning katta qismini somatik komponentli frazeologik birliklar tashkil qiladi. Somatizm termini yunoncha "soma" so'zidan olingan bo'lib, tana degan ma'noni bildiradi. Bu atama ilk bor eston tadqiqotchisi F. Vakk tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning fikricha, "Somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday so'z boyligining eng ko'p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi⁴".

Ingliz, o'zbek, rus va tojik tillari somatik frazeologik birliklarga boy, shu sababli bu jihat frazeologizmlarga oid keng ko'lamlil ilmiy tadqiqot olib borish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, tilning frazeologiyasi taqqoslanayotgan tillarning xususiyatlarini, o'ziga xos ustuvorliklarini ajratib ko'rsatish va majoziy iboralarning milliy va madaniy xususiyatlarini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida somatik frazeologiyagadoir keng miqyosda tadqiqotlar olib borilgan, ko'plab ilmiy tadqiqot ishlar mavjud. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, somatik frazeologiyalar yordamida ham har bir xalqning turmush-tarzi, urf-odatlar va insonning ruhiy va jismoniy holatlarini tasvirlash mumkin. Xususan, frazeologik birliklarni badiiy asarlar misolida o'rganar ekanmiz, Sadridin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" asarida somatik frazeologizmlardan keng foydalanilganini guvohi bo'lishimiz mumkin. "Sudxo'ring o'limi" hajviy qissasi dunyo adabiyotshunoslari tomonidan yangi tojik adabiyotidagi satiraning eng yoqori cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. Mashhur chex adabiyotshunosi Irji Bechka ta'kidlaganidek, "Sadridin Ayniy "Sudxo'ring o'limi" asarida sudxo'rlar ruhiy olaminini tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi". Sadridin Ayniyning mazkur qissasi dunyoning mashhur adiblari V. Shekspir, O. Balzak, A.S. Pushkin, N.V. Gogol, S. Shedrin, Sadik Hidoyat kabi ijodkorlar asarlaridek yuqori baholanadi. Undagi Qori Ishkamba obrazi jahon adabiyotidagi xasis ritsar - Plyushkin, Gobsek, Sheylok, Iudushka Golovlev, Hojiog'o kabi obrazlar bilan bir qatorda turadi. Sadridin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" asarida qo'llanilgan quyidagi somatik frazeologik birliklar e'tiborga molik.

- **Ханӯз аз даҳонат бӯи шир меояд**, ammo tu худро сисола мегӯи? – гуфт Қори Ишкамба (Марги судхӯр, с.110).
- У тебя **изо рта еще материнским молоком пахнет**, а ты говоришь, что тебе тридцать лет! – возмутился тут Кори Ишкамба (Смерть ростовщика, с.74).
- **Ona suting hali og'zingdan ketgan emasku**, sen o'zingni qanday o'ttiz yashar deyaotirsan? – dedi Qori-Ishkamba (Sudxo'ring o'limi, b.78).
- You are still **wet behind the ears**, but you call yourself 30-year-old? – said Kori-Ishkamba (The death of moneylender).

Keltirilgan inson jismoniy holatini tasvirlovchi somatik frazeologik birliklarda to'rtala tilda ham bir xil mazmun-mohiyatni, ya'ni, juda yosh, tajribasiz, g'o'r ma'nolarini ifodalayotgan bo'lsa ham, shaklan, grammatik va uslubiy jihatdan farqlanmoqda. Zero, tojik, rus va o'zbek tillarida "**og'iz**" so'zi saqlangan bo'lsa, ingliz tilida "**ear**" (quloq) leksemasi orqali ifodalangan. Rus tiliga "**аз даҳонат бӯи шир меояд**" iborasi "**изо рта еще материнским молоком пахнет**" deb, so'zma-so'z, ya'ni kalka

³ I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, "Tarjima nazariyasi", o'quv qo'llanma, T. 2012. 157 b.

⁴ Вакк. Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. канд. фил. наук – Таллин, 1964.



orqali tarjima qilingan. Ammo rus tilida bunga mos ekvivalent “**молоко на губах не обсохло**” iborasi mavjud bo‘lib, bu esa tarjimonning nazaridan chetda qolgan. Ushbu ibora qo‘llanilganida edi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. O‘zbek va tojik tillari bir-biriga azaldan yaqin til, shu sababdan o‘zbek va tojik xalqlari orasida ushbu ibora “**yosh, tajribasiz, g‘o‘r, juda kichkina**” ma‘no mohiyatga ega bo‘lib, bir xil tushuniladi va qabul qilinadi. Inglizlarda esa, ushbu “**wet behind the ears**”(is someone who is very young, naive and inexperienced) frazeologik birlikning quyidagicha kelib chiqish tarixi mavjud. “**qulog‘ining orqasi ho‘l (nam)**” iborasi amniotik suyuqlik bilan ho‘l bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa ishoradir. Boshqa bir nazariya shuni ko‘rsatadiki, bu ibora yangi tug‘ilgan hayvonlarni, ayniqsa, ho‘l tug‘ilgan va quloqlari orqaga bukilgan otlar kabi sutemizuvchilarni tom ma‘noda kuzatishdan kelib chiqqan. G‘oya shundan iboratki, ho‘l, yangi tug‘ilgan hayvon hali juda yosh, tajribasiz va u quriganida quloqlari ochiladi. Shuning uchun, “**qulog‘ining orqasi ho‘l**” iborasi tajribasiz shaxsga qarata aytiladi. Dangasalik, yalqovlik, ishyoqmaslik kabi inson holatlarini tasvirlovchi quyidagi frazeologik birlikka e‘tiborimizni qaratamiz.

... аз фоидаи он маблағ ҳар сол садҳо сӯм даромад карда **шикамашонро хорида нишинанду** оммаи мардум аз гуруснагӣ бимиранд (Марги судхӯр, с. 167).

... не позволять спокойно сидеть, **почесывая живот**, получать сотысячные доходы, когда труженик умирает голодной смертью (Смерть ростовщика, с.104).

... yilda bir yuz ellik-ikki yuz ellik so‘m prosent olib **ishlamay-netmay qorinlarini qashib yuradilar** (Sudxo‘rning o‘limi, b.143)

... to sit quietly, **scratching your belly**, and receive a hundred-thousand income when a worker is dying of starvation (The death of moneylender).

“**шиками худро хорида нишастан**” iborasi, hozirgi tojik frazeologik lug‘atiga quyidagicha “бекор нишастан, танбалӣ намудан”⁵ (bekor o‘tirmoq, dangsalik qilmoq) deb ta‘rif berilgan. Ushbu iboraning ruscha “**сложь руки сидеть – сидеть ничего не делая, без дела, бездействовать, бездельничать, ничего не предпринимать**”⁶ ekvivalenti mavjud bo‘lsada, u tarjimonning nazaridan chetda qolgan va tarjimon mazkur iborani so‘zma-so‘z tarjima qilgan. Rus tilida ushbu iboraning hatto “**палец о палец не ударить, пальцем не щевельнуть**” sinonimlari ham mavjud. O‘zbek tiliga esa, avval, “**ishlamay-netmay**” iboraga izoh berilib, keyinchalik “**qorinlarini qashib**” iborasi keltirilgan. Ingliz tilida esa, ushbu frazaning “**sit with folded arms, sit back, sit on your hands, do nothing**” ma‘nolarini ifodalovchi idiomalar mavjud. Inson ruhiy holati, ya‘ni, xursandchiligini ifodalovchi quyidagi somatik komponentli frazani ko‘ramiz.

Қоришкамба бо шунидани ин пешниҳод чунон шодӣ кард, ки аз хурсандӣ **дар пўсташ намеғунчид**,... (Марги судхӯр, с.152).

Услыхав это, Кори Ишкамба был так восхищен, что от радости **сердце ростовщика было готово выпрыгнуть из груди** (Смерть ростовщика, с.75).

Qori-Ishkamba bu taklifni eshitib, quvonganidan **terisiga sig‘maydigan** darajada shishib ketdi (Sudxo‘rning o‘limi, b.127).

Hearing this proposal, Kori Ishkamba was so delighted that **couldn’t fit in his skin** (The death of moneylender).

“**дар пўсташ намеғунчид**” iborasining ma‘nosi “ниҳоят хурсанд, хушҳол, шод, фараҳманд гаштан” ya‘ni, haddan xursand bo‘lmoq ma‘nosida kelgan. Rus tiliga esa “**сердце было готово выпрыгнуть из груди**” ya‘ni, xursandchilikdan yuragi ko‘ksidan otilib chiqishga tayyor edi, shaklida o‘girilgan. O‘zbek tilida “**terisiga sig‘madi**” iborasining, boshi ko‘kka etdi, og‘zi qulog‘ida, boshi osmonga yetdi kabi sinonimlari ham mavjud. Ingliz tiliga esa, “**couldn’t fit in his skin**” terisiga

⁵ Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – с.440, №72.

⁶ Словарь русского языка: В 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований; Под ред. А. П. Евгеньевой. — 4-е изд., стер. — М.: Рус. яз.; Полиграфресурсы, 1999.



sig‘madi deb tarjima qilingan, vaholanki, inglizcha “**over the moon, on cloud nine**” haddan tashqari xursand bo‘lmoq, idiomalari mavjud. Inson jismoniy holati ochlikni tasvirlovchi quyidagi somatik ibora e‘tiborga molik.

➤ Ба ин кас ҳам ош биёретон, охир! – гуфт маро нишон дода, – ҳамроҳи дасти ин **кас шикамашон ҳам танбӯр навохта истодааст**. Оши ин кас сергӯшту сerratвантар шавад. (Марги судхӯр, с.32).

«У него не только руки играют, и **живот урчит в лад тамбуру!** Да смотрите, чтоб плов был пожирней да мяса побольше!» (Смерть ростовщика, с.16).

➤ Rahim aka uchun ham osh buyuring axir, qo‘li bilan birga “**qorni ham tanbo‘r chalayotir**”, - dedi va qo‘shimcha qildi (Sudxo‘rning o‘limi, b.26).

➤ Not only his hands play, but **his stomach rumbles in tune with the tambour!** Yes, make sure that the pilaf is fatter and has more meat (The death of moneylender)

“**шиками касе танбӯр навохтан**” iborasi, hozirgi tojik frazeologik lug‘atiga quyidagicha “сахт гурусна будан”⁷ (och qolmoq) deb ta‘rif berilgan. Och qolmoq hissiyotini rus tiliga “**голодный как волк**” iborasi bilan ifodalash mumkin. O‘zbek tiliga ham “**bo‘ridek och**” iborasi mavjud bo‘lib, o‘zbek tiliga esa to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘girilgan. Ingliz tilida ham ushbu iboraning “**hungry as a wolf**” ekvivalenti mavjud. Ko‘rinib turibdiki qiyoslanayotgan uchala tilda ham “och qolmoq” tushunchasini bir xil “bo‘ri” so‘zi orqali ifodalash mumkin. Xasis, mumsik, ochko‘zlik kabi inson holatlarini tasvirlashda quyidagi somatik frazeologik birlikdan foydalanilgan.

➤ Як ҳиндуи салланок, як судхӯри гузаро, як хасиси **чирки дандонхӯр!** – гуфт Раҳим дар чавоб (Марги судхӯр, с.31)

➤ Salla o‘ragan hindi, o‘taketgan sudxo‘r, isqirt, **mumsik bir odam**, - dedi (Sudxo‘rning o‘limi, b.26).

➤ Язычник, шакал в чалме, **кровосос-ростовщик**, скряга и негодяй, – ответил Рахими-Канд (Смерть ростовщика, с.16).

➤ A sleazy greedy usurer, miser and **tooth-dust eater**, - Rahim said in response (The death of moneylender).

“**чирки дандонхӯр**” iborasi, tojik frazeologik lug‘atida quyidagicha, ya‘ni, “ниҳоят мумсик, хасис”⁸ (mumsik, xasis, ochko‘z) deb izoh berilgan. O‘zbek tiliga “**чирки дандонхӯр**” iborasiga **isqirt, mumsik bir odam** deb izoh berilgan bo‘lib, frazeologik birlikdan voz kechgan. Rus tiliga esa, **кровосос-ростовщик**, ya‘ni **qonxo‘r-sudxo‘r** deb ta‘rif berilgan. Inglizchada esa, aynan so‘zmaso‘z, **tooth-dust eater**, tarjimasi berilgan, vaholanki ingliz tilida **cheapskate, a miserly person** (a person who is unwilling to spend money) idiomalari mavjud. Keltirilgan misollarda shuni kuzatishimiz mumkinki, tarjimalarda turli semantik iboralar ifodalangan bo‘lsada, aslyatdagi mazmun mohiyat saqlangan.

Ikki yoki undan ortiq tillarda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklarni qiyoslab tahlil qilib o‘rganish, tadqiq etish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Ularni qiyoslab o‘rganar ekanmiz, turli xalqlar madaniyati, urf-odat, turmush-tarzi, orzu istaklari ko‘z o‘ngimizda yaqqol gavdalanadi. Ayniqsa, S. Ayniy asarlarida bo‘yoqdorlik, takrorlanmaslik va rang-baranglikni ta‘minlovchi metafora, o‘xshatishlar, epitet, mubolag‘a, zarbulmasal, maqol va hikmatli so‘zlar bilan bir qatorda frazeologik birliklar asar tilini xalqchil, tabiiy va jozibador bo‘lishiga katta xizmat qiladi. Zero, frazeologik birliklar asrlar osha xalqning og‘zaki ijodiy mahsuli bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yuqotgani yo‘q. Har bir xalqning til boyligi, xalq mulki hisoblanadi. Frazeologik birliklar

⁷ Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – с.440, №70.

⁸ Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1964 – с.405, №196.



tilning koʻrki, ixcham hajmga ega boʻlishi bilan birga keng maʼnoda xalq zakovati mahsuli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Айнӣ Садриддин. Марги судхӯр. – Қисса - Душанбе, 2010, «Адиб», 220 сах.
2. Ayniy Sadriddin. Sudxoʻrning oʻlimi.- Qissa. – Toshkent. «Yoshlar nashriyot uyi», 2018. – 152 bet.
3. Айни Садриддин. Смерть ростовщика: (Повесть и очерк: Пер. с тадж.) – Душанбе: Адиб, 1987. – 224 с.
4. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди якум. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – 971 с.
5. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти «ИРФОН», Душанбе, 1964 – 807 с.
6. I.Gʻafurov, O.Moʻminov, N.Qambarov, “Tarjima nazariyasi”, oʻquv qoʻllanma, T. 2012. 157 b.
7. Ibayev A.J. Komparativ sintaktik qurilmalar tilshunoslikning oʻrganish obyekti sifatida// “Soʻz sanʼati” xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. –№1. –В. 97-102. (10.00.00.№31)
8. Мачидов Х. Фразеологияи забони ҳозираи тоҷик, (Дастури таълимӣ), Душанбе, 1982, 107 с.
9. MIRZOYEV, J. HOFIZ SHEROZIY GʻAZALIDAGI NOZIK JIHATLARINING TARJIMADA BERILISHI.(FORS-INGLIZ TILLARI MISOLIDA). *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 83-85.*
10. Norkulovich, M. J. (2023). SADRIDDIN AYNIYNING “ESKI MAKTAB” POVESTIDAGI FRAZEOLGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI (TOJIK, OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). *TAʼLIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 37-41.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1978, - 407 б.
12. Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1983, - 232 б.
13. Шодиев С. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари // Ўзбекистон хорижий тиллар(электрон илмий-методик журнал). - Тошкент, 2017. -№2,16. –Б.246-250. (10.00.00. №17)
14. Shodiyev S. Set phrase as a Syntactic Phenomenon // International Journal of Science and Reseach(IJSR). Volume 8 Issue 10, October, 2019.–P. 867-869 (№23. SJIF: 7.426)
15. Шамуродова, Н. М. (2023). KAUZALLIKNING INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA IFODALANISHI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 6(4).

